

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

6.2. Nizolarni taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmagan taqdirda, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

7. Boshqa shartlar.

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan naqd pul tushumini yig'ish va bank kassasiga topshirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli yo'riqnomalarida belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

7.2. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi. Agar, Taraflar 2022 yil 31 dekabr gacha shartnomani bekor qilish istagini bildirmasa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

7.3. Agar Taraflardan biri shartnomani bekor qilish istagini bildirsa, u bu haqda 3 kun oldin yozma ravishda boshqa taraflarga ma'lum qilishi lozim.

7.4. Ushbu shartnomaga kiritilishi mumkin bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar taraflarning yozma murojaatiga asosan qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

7.5. Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa holatlar O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

7.6. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, tomonlarning har biriga bir nusxadan beriladi.

8. Taraflarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

"Inkassatsiya xizmati"

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Respublika Inkassatsiya xizmati DUK Xorazm viloyat boshqarmasi Manzil: Xorazm viloyat Urganch shahar

Xalq so'zi ko'chasi 125 uy.

HG'R: 2159 6000 8001 9388 0001

Bank nomi: Markaziy bank

Bank kodi: 00027

STIR 200 407 942

OKED 82910

Tel: 62-225-90-20, 62-225-90-22

62-225-90-22


(imzo)

S.P. Avetisyan

(imzo)



M.O'.

2022 y. 05 yanvar

"Buyurtmachi"

QSC bo'limi Xorazm viloyati boshqarmasi
Agar va A. Boshqarmasi 174

Tel: 62-225-82-81, 225-82-83

HG'R: 40141 160 33101 034110054001

Bank nomi: Markaziy bank

Bank kodi: 00019

STIR: 200 226 123

QQS to'lovehi kodi


M.P. Davlatov
(lavozimi, F.I.Sh.)



2022 y. 05 yanvar

S.E.O. va J.S.X.

Yuristi SH.X. Avetisyan

SHARTNOMA

2022 yil 05 Yanvar

Urganch shaxar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Respublika Inkassatsiya xizmati davlat unitar korxonasi Xorazm viloyat boshqarmasi, keyingi o'rinlarda "Inkassatsiya xizmati" deb ataluvchi, bir Ishonchnoma asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig'i S.P.Abdullaev o'rinlarda tarafdin ikkinchi tarafdin hamda Xorazm viloyat SEO va JSX boshqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb ataluvchi guvohnoma asosida ish yurituvchi M.R.Samandarov ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. "Inkassatsiya xizmati" o'z kuchi hamda vositalari bilan, "Buyurtmachi" bilan kelishgan kunlarda va soatlarda pul tushumini yig'adi. "Buyurtmachi"lar ro'yxatlari, pul tushumlari yig'iladigan kunlar va soatlar ko'rsatilgan qatnov jadvallari "Bank" bilan "Inkassatsiya xizmati" o'rtasida kelishib tuziladi. "Bank" inkassatorlardan naqd pulni qabul qilish va o'z vaqtida "Buyurtmachi"ning hisob raqamiga o'tkazadi. "Buyurtmachi" esa, "Inkassatsiya xizmati" tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun ushbu shartnomada ko'zda tutilgan miqdorlarda va muddatlarda haq to'laydi.

1.2. "Inkassatsiya xizmati" tomonidan "Buyurtmachi"ning pul tushumini yig'ish ishlari haftaning yakshanba va bayram kunlaridan tashqari amalga oshiriladi. Pul tushumini yakshanba va bayram kunlari yig'ish ishlari "Buyurtmachi"ning alohida buyurtmasiga asosan amalga oshirilishi mumkin.

2. Taraflarning majburiyatlari.

2.1. "Inkassatsiya xizmati"ning majburiyatlari:

- "Buyurtmachi"ning naqd pul tushumlarini mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan kunlari inkassatsiya qilinishini ta'minlaydi;
- o'z kuchi va texnik vositasi bilan "Buyurtmachi"ning kunlik naqd pul tushumini yig'adi hamda "Bank"ka butligini va daxlsizligini ta'minlagan holda olib borib topshiradi;
- "Buyurtmachi" tomonidan yuritilgan kitobda qayd etadi va "Buyurtmachi"ning pul tushumini buyurtmada ko'rsatilgan kunlari o'z vaqtida inkassatsiya qilinishini ta'minlaydi;
- "Buyurtmachi"ning mas'ul vakiliga naqd pul tushumi solingan inkassator sumka (qop)larini topshirish tartibini o'rgatadi;

- "Inkassatsiya xizmati"ning inkassatorlari tomonidan naqd pul tushumi solingan inkassator sumka (qop)larida tashqi shikastlanishlar (yamoqlar, choklari so'kilgan, yirtilgan, tizimchalarning uzilgan yoki tugilgan joylari mavjud bo'lganda, plombaga plombaratorning izi aniq tushirilmaganda, shikastlanganda, tasdiqlangan namunaga mos kelmaganda va ilova hujjatlarida kamchiliklar mavjud bo'lganda qabul qilinmaydi. Inkassator sumka (qop)lari va ilova hujjatlaridagi kamchiliklar bartaraf etilgandan keyingina ular qabul qilinadi.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

- kunlik naqd pul tushumini dushanbadan shanbagacha

(davriyligi) oy sanasi yoki hafta kunlari ko'rsatiladi)

"Inkassatsiya xizmati" inkassatorlariga topshirilishini ta'minlaydi (bunda "Buyurtmachi" bir kun oldin buyurtma bergan holda boshqa kunlari ham "Inkassatsiya xizmati" orqali kunlik pul tushumlarini topshirish huquqini saqlab qoladi);

- naqd pul tushumi solingan inkassator sumka (qop)larini o'z vaqtida va belgilangan tartibda inkassatorlarga topshirilishiga mas'uldir;

- "Buyurtmachi" tomonidan qo'shimcha ravishda pul tushumini topshirish zarurati tug'ilganda "Inkassatsiya xizmati"ning navbatchi telefon raqami orqali korxonaga beradi;

- inkassatorlar pul tushumini olishga borish uchun yo'llar va kirish yo'laklari bo'sh bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, pul tushumini qabul qilinishi uchun sharoitlarni yaratib beradi va naqd pul solingan inkassator sumka (qop)larini inkassatorlar kelishidan 15 daqiqa avval tayyorlab qo'yadi;

- "Inkassatsiya xizmati" inkassatorlari pul tushumini inkassatsiya qilish uchun shoxobchaga kelganlarida pul tayyor bo'lmaslik yoki pul solingan inkassator sumka (qop) qabul qilinmaydi. Kamchiliklar joyida bartaraf qilingan taqdirda aniqlanganda pul tushumi solingan sumka (qop) qabul qilinmaydi. Kamchiliklarni bartaraf qilishga ko'proq vaqt talab pul tushumi solingan sumka (qop) inkassatsiya qilinadi. Agar kamchiliklarni bartaraf qilishga qatnov uchun qilinsa, inkassatorlarning qayta qatnovida inkassatsiya qilinishi mumkin. Bunda qayta qatnov uchun shartnomaning 3.1. bandidin

5 ustuniga muvofiq hisob-kitob qilinadi;

- "Inkassatsiya xizmati" tashrifini vaqtinchalik to'xtatish yoki tiklash lozim bo'lganda "Inkassatsiya xizmati"ni oldindan yozma ravishda ogoh etadi;

- inkassatoridan fotosurati bo'lgan xizmat guvohnomasini va pul tushumini qabul qilish vakolatini beruvchi Ishonchnomasini ko'rsatishini, naqd pul tushumi solingan inkassator sumkasi (qop)ning kvitantsiyasiga xalta raqamini va sana qayd etishini, imzo chekib, yo'nalish raqami ko'rsatilgan muhri bosib berishini talab qiladi.

3. Inkassatsiya xizmati uchun haq to'lash.

3.1. Pul tushumini yig'ish xizmatlari uchun "Buyurtmachi" Inkassatsiya xizmati"ga o'tgan oyda inkassatsiya qilingan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib, quyida ko'rsatilgan tariflardan birini tanlash yo'li bilan haq to'laydi:

№	Oy davomida inkassatsiya qilinadigan naqd pul tushumi miqdori	Foiz tarifi * (bir oylik inkassatsiya qilingan pulga nisbatan)	Qat'iy narx tarifi ** (bir oylik abonent to'lovi)	Qatnovlar tarifi*** (bir qatnov narxi)	Bir oylik cheklangan qatnovlar soni ****
		3	4	5	6
1	2				
1	1 so'ndan - 1 mln. so'mgacha	7,5 %	60 000	20 000	3
2	1 mln. so'ndan - 3 mln. so'mgacha	6 %	80 000	22 000	4
3	3 mln. so'ndan - 5 mln. so'mgacha	2,66 %	100 000	25 000	4
4	5 mln. so'ndan - 10 mln. so'mgacha	2 %	175 000	27 000	10
5	10 mln. so'ndan - 20 mln. so'mgacha	1,75 %	250 000	29 000	10
6	20 mln. so'ndan - 50 mln. so'mgacha	1,25 %	500 000	31 000	20
7	50 mln. so'ndan - 100 mln. so'mgacha	1 %	750 000	33 000	
8	100 mln. so'ndan - 150 mln. so'mgacha	0,75 %	1 000 000	44 000	
9	150 mln. so'ndan - 200 mln. so'mgacha	0,66 %	1 100 000	48 000	
10	200 mln. so'ndan - 350 mln. so'mgacha	0,55 %	1 200 000	53 000	
11	350 mln. so'ndan - 500 mln. so'mgacha	0,34 %	1 400 000	62 000	
12	500 mln. so'ndan - 750 mln. so'mgacha	0,28 %	1 600 000	72 000	
13	750 mln. so'ndan - 1 mlrd. so'mgacha	0,21 %	1 800 000	79 000	
14	1 mlrd. so'ndan - 2 mlrd. so'mgacha	0,18 %	2 000 000	90 000	
15	2 mlrd. so'ndan - 4 mlrd. so'mgacha	0,10 %	3 000 000	135 000	
16	4 mlrd. so'ndan - 6 mlrd. so'mgacha	0,075 %	4 000 000	175 000	
17	6 mlrd. so'ndan - 8 mlrd. so'mgacha	0,066 %	5 000 000	220 000	
18	8 mlrd. so'ndan - 10 mlrd. so'mgacha	0,064 %	6 500 000	285 000	
19	10 mlrd. so'ndan - 15 mlrd. so'mgacha	0,063 %	8 000 000	350 000	
20	15 mlrd. so'ndan - 20 mlrd. so'mgacha	0,055 %	10 000 000	440 000	
21	20 mlrd. so'ndan - 35 mlrd. so'mgacha	0,050 %	12 000 000	530 000	
22	35 mlrd. so'ndan - 50 mlrd. so'mgacha	0,035 %	14 000 000	615 000	
23	50 mlrd. so'ndan - 75 mlrd. so'mgacha	0,028 %	17 000 000	750 000	
24	75 mlrd. so'ndan - 100 mlrd. so'mgacha	0,023 %	20 000 000	880 000	
25	100 mlrd. so'ndan yuqori	0,02 %	30 000 000	1 320 000	

Yakshanba va bayram kunlaridan tashqari har kuni 1 marra (o'rtacha bir oyda 25 kun)

Izoh: * Foiz tarifi to'lovi - oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib tegishli foizga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda oy davomida mijozga boriladigan cheklangan qatnovlar soni jadvalning 6-ustunida belgilangan.

** Qat'iy narx tarifi to'lovi (abonent to'lovi) - oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib tegishli qat'iy belgilangan narxga asosan aniqlanadi. Bunda oy davomida mijozga boriladigan cheklangan qatnovlar soni jadvalning 6-ustunida belgilangan.

Mijoz buyurtmasiga asosan cheklangan qatnovlar sonidan tashqari har bir qo'shimcha qatnov uchun haq oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib jadvalning 5-ustuniga muvofiq aniqlanadi.

*** Qatnov tarifi to'lovi - oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib tegishli qatnov narxini oy davomida mijozga boriladigan cheklangan qatnovlar soniga mos ravishda(jadvalning 6-ustunida) ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Barcha tariflarda dam olish (yakshanba) va bayram kunlari uchun haq ushbu shartnomaning 3.1. bandi 5 ustuniga muvofiq 2 barobar miqdorida hisoblanadi. Bunda oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib tegishli qatnov narxi mijozga dam olish (yakshanba) va bayram kunlari borilgan qatnovlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Shuningdek, bir oylik belgilangan qatnov sonidan tashqari qo'shimcha qatnov uchun haq ushbu shartnomaning 3.1. bandidagi tarifning 5-ustunida ko'rsatilgan miqdorda to'lanadi. Bunda oy davomida inkassatsiya orqali topshirilgan naqd pul tushumi miqdoridan kelib chiqib tegishli qatnov narxi mijozga borilgan qo'shimcha qatnovlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

**** Bir oylik cheklangan qatnovlar soni - mijoz tomonidan oy davomida inkassatsiya orqali topshiriladigan naqd pul miqdoridan kelib chiqib bir oylik cheklangan qatnovlar soni belgilanadi.

3.2. Ko'rsatilgan inkassatsiya xizmati uchun "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtasidagi hisob-kitoblar QQS bilan to'lovining, ushbu shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan tar'iflarga asosan tanlab olingan

KAT'IY NARX TARIFI asosida 2022 yil 05 yanvardan 2022 yil 31 dekabrgacha bulgan davrda kursatilgan inkassatsiya xizmatiga 9 396 000 (toqqiz million ush vz tuqson olti ming) so'mni xar oйда taqdim qilingan xisob fakturaga asosan to'lovni amalga oshiradi.

3.3. Agar "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning 3.2. bandidagi tanlab olgan tarifidan boshqa tarifga o'tmoqchi bo'lsa, u bu haqda "Inkassatsiya xizmati"ga keyingi oy boshlanishidan 15 kun oldin yozma ravishda murojaat qiladi.

3.4. Bir oylik belgilangan qatnov sonidan tashqari qo'shimcha qatnov ko'rsatilgan inkassatsiya xizmati uchun haq ushbu shartnomaning 3.1. bandidagi tarifning 5-ustunida ko'rsatilgan miqdorda to'lanadi.

3.5. Dam olish va bayram kunlari ko'rsatilgan inkassatsiya xizmati uchun haq ushbu shartnomaning 3.1. bandi 5 ustunida ko'rsatilgan tarifning 2 barobari miqdorida hisob-kitob qilinadi va to'lanadi.

3.6. "Buyurtmachi" keyingi oy uchun 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) puli to'lab beradi. Bo'nak (avans) puli o'tgan oyda ko'rsatilgan inkassatsiya xizmati haqining 15 foizi miqdorida hisoblanib, bo'nak (avans) puli ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etiladigan hisob-fakturada aks ettiriladi.

3.7. "Buyurtmachi" "Inkassatsiya xizmati" tomonidan taqdim etilgan to'lov talabnomasini va hisob-fakturani olgan kundan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmagan holda to'lovni amalga oshiradi.

3.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga asosan Respublikada mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilgan vaqtda xizmat haqi qayta ko'rib chiqiladi.

4. Taraflarning javobgarligi.

4.1. "Inkassatsiya xizmati":

4.1.1. Naqd pul tushumi solingan inkassator sumka (qop)lari but saqlanishi uchun "Buyurtmachi" oldidagi javobgarligi inkassatorlar pullik inkassator sumka (qop)larini qabul qilib olgan vaqtdan boshlanib, "Bank" vakiliga topshirgan paytda tugaydi.

4.1.2. Inkassator sumkasi (qop) va unga qo'yilgan plomba but bo'lgan taqdirda "Inkassatsiya xizmati" inkassator sumkasi (qopi) ichidagi pulning butligi uchun "Buyurtmachi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.

4.1.3. "Inkassatsiya xizmati" "Buyurtmachi"ning buyurtmasini o'z vaqtida bajarmasa, - har bir kechiktirilgan kun uchun "Buyurtmachi" tomonidan "Inkassatsiya xizmati"ga o'tgan oyda to'lab berilgan xizmat haqi summasining 0,4 foizi hisobidan, ammo bir oylik to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

4.3.4. "Buyurtmachi"ning hisob raqamiga inkassatsiya xizmati orqali topshirilgan pul tushumini o'z vaqtida to'liq va to'g'ri o'tkazilishiga mas'uldir.

4.3.5. Inkassator sumka (qop)lari bank aybi bilan yaroqsiz holga kelsa yoki yo'qotilgan taqdirda "Buyurtmachi"ga inkassator sumka (qop)lari qiymatini qoplab bermaydi.

4.2. "Buyurtmachi":

4.2.1. Ko'rsatilgan xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lanmagani uchun "Buyurtmachi", "Inkassatsiya xizmati" foydasiga hap bip kechiktirilgan kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan summaning 0,4 foizi hisobidan, lekin to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

4.2.2. "Buyurtmachi"ning hisob raqamiga inkassatsiya xizmati orqali topshirilgan pul tushumini o'z vaqtida to'liq va to'g'ri o'tkazilishiga mas'uldir.

4.2.3. Inkassator sumka (qop)lari bank aybi bilan yaroqsiz holga kelsa yoki yo'qotilgan taqdirda "Buyurtmachi"ga inkassator sumka (qop)lari qiymatini qoplab bermaydi.

5. Fors - major holatlari.

5.1. Hech bir taraf boshqa taraflar oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmay kuch (er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va h.k.), hukumatning taqiqlovchi qarorlari hamda hukumat tomonidan tadbirlar o'tkazilgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas.

6. Nizolarni hal etish tartibi.